


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI
“BOSHLANG’ICH TA’LIM” YO’NALISHI
2 - BOSQICH 220 - GURUH TALABASI
TANGIROVA MUNZIFANING
“TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI”
fanidan

“JAMOANI TASHKIL ETISH METODIKASI” MAVZUSIDAGI

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: _____

Termiz - 2021 yil

MAVZU: JAMOANI TASHKIL ETISH METODIKASI

REJA:

Asosiy qism. Kirish.

I. Jamoa va jamoa faoliyatini tashkil etish metodikasi

- 1.1. Jamoa haqida tushuncha. O'quvchilar jamoa faoliyatini tashkil etish shakllari.
- 1.2. Jamoaning shakillanish bosqichlari.
- 1.4. Jamoaning shakillantrish va unda shaxsni tarbiyalash faoliyati.

II. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganish metodikasi

- 2.1. Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.
- 2.2. Sinf jamoasini tarbiyalash ishini rejalashtirish.
- 2.3. Sinf jamoasi bilan ishlash va unga xabarlik qilish.

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Bugungi kunda Ta'lim to'g'risidagi qonunni amalga oshirish jarayonida yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan, yuqori malakali, turli soha egalarini tayyorlash kasb – hunar ta'limi oldiga qo'yiladigan talablarga mutunosib insonlar qilib shakllantirish ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biridir. Ayniqsa mehnat va kasb ta'limi sohasida bilim olgan bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari mehnat faoliyatini, mahoratini oshirish oily ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu muammoni hal qilishning birdan bir yo'li mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari mahoratini, faoliyatini oshirish eng avvalo pedagogik shart- sharoitlar hamda oliy ta'lim muassasidagi barcha imkoniyatlardan kelib chiqib, o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olinganligini ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jixatdan yetuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-xodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borlikda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy

islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi:

«Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir».Kamil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo'lishdi. Xozirgi kunda zamonaviy pedagogik jamoa bilan juda yahshi ishlashni bilishi va yahshi jamoa shakilantira olishi lozim.

1.1 Jamoa haqida tushuncha. Jamoa faoliyatini tashkil etish shakllari.

Jamoa (lotincha «kollektivus» soʻzining tarjimai boʻlib, yigʻilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha aʼzo (kishi)lardan iborat boʻlib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil maʼnoda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yoʻlida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, oʻquv yurti jamoasi, xoʻjalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, oʻquvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega boʻlgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol oʻynashi toʻgʻrisidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning aʼzolari oʻrtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini taʼminlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab boʻlmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

Oʻquvchilar jamoasi oʻziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga egadir. quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida soʻz yuritamiz.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha meʼyorlari oʻz ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon boʻlar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida oʻzaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Shu bois jamoa hayotining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-gʻoyaviy xususiyat kasb etishi uning etakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy aloqadorlikda mavjud boʻladi. Muayyan jamoaning har bir aʼzosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida oʻz jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa aʼzolarini intilishlarini

tushunish, jamoa oldiga qo'yilgan maqsad mohiyatini chuqur his etish hamda uning shaxsni shakllantirishdagi o'рни va rolini to'g'ri baholay olish jamoa a'zolarining umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsad, qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatlari o'rtasidagi birlikni namoyon etadi hamda jamoaning bo'linishga yo'l qo'ymaydi. Har bir jamoa o'zini-o'zi boshqarish organiga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir. Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni, jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblandi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa, xususan, uning a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun qayg'urish, mazkur yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish hamda javobgarlik hissi qaror topadi. Demak, jamoa o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun ma'suliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, a'zolarida jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro hissiy birlik (bir-birini yoqtirish hissi) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular o'qituvchiik ta'sir ko'rsatish uchun qo'll keladi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ruhiy birlik mazmuni ular orasida hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur jihat bir tomondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik munosabati mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik

vazifasini bajaruvchi shaxslar tomonidan jamoa a'zolarining xatti-harakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotgan boshqaruv faoliyati mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Jamoa

Ijtimoiy
ahamiyatga
ega yagona
maqsadning
mavjudligi

Birgalikda
gi umumiy
faoliyatnin
g tashkil
etilishi

Majburiy,
mas'uliyatli
munosabatnin
g yo'lga
qo'yilishi

Saylang
an
umumiy
rahbariy
organga
egalik

jamoaning o'ziga xos xususiyatlari

Norasmiiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'tasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Kasb-hunar kollej yoki sinfdagi rasmiy va norasmiiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan o'quvchilar guruhlari qanchalik aail va inoq munosabat asosida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi.

Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni qaror toptirishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga o'qituvchiik rahbarlikning yo'lga qo'yilishidir.

Shunday qilib, jamoa bir necha (a'zo) kishidan iborat guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida tashkil topadi. Jamoa tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat uning oldiga qo'yilgan maqsad mazmunini ifoda etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida qaror topgan o'zaro birlik, shuningdek, ular o'rtasida tashkil etiluvchi munosabat jarayonidagi tenglik jamoaga rahbarlik qilish, jamoa a'zolarining guruh etakchilariga bo'ysunishlari, shuningdek, ular tomonidan jamoa oldidagi javobgarlik hissini anglashlari uchun zamin yaratadi.

Jamoa va uni shakllantirish o'qituvchiik faoliyatining maqsadi hisoblanidi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'ektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Kasb-hunar kollej jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in-bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida kasb-hunar kollej jamoasi shakllanadi. Kasb-hunar kollej jamoasi ikki muhim bo'g'in o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'uvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy

saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda o'quvchilardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'zini-o'zi nazorat qilish hamda o'zini-o'zi boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy, jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadga (masalan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun katnashchilarning o'zaro muomalasini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo'ladi. Bu ko'p jihatdan o'quvchilarning faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog'liq bo'ladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning o'zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoa aloqalar vujudga keladi. Bu shakllar obyektiv jihatdan o'zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ishning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, katnashchilar o'rtasida aloqa ta'sirining paydo bo'lishiga olib keladi. Misol tariqasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning jamoa shakllaridan biri-bilimlarning ijtimoiy ko'rigini qarab chiqamiz. U biror fan bo'yicha o'tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita komanda ishtirok etishi mumkin. Ko'rikning dasturi ishlarning har-xil turlaridan (yozma, og'zaki, grafik masalalar yechish, topshiriq uchun topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda 40-60 daqiqadan oshmaydi. Ko'rik oxirida hay'at a'zolari har bir qatnashchiga va umuman

komandadagi o`rtacha bahoni e`lon qiladi. Bu o`rinda bilish faoliyati bilan bog`liq bo`lgan muomala ko`rikka hozirlik ko`rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o`tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko`rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgarlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni

taqsimlashi yoki guruh bo`lib ishlashni talab qiladi. Ko`rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilar o`rtasida sodir bo`ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo`lib, o`z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina vazifani muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Jamoa muomalani tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhliy ishdir, bunda mazkur ish bolalarshing tarkib jihatidan uncha katta bo`lmagan (eng ko`pi bilan kishi 5 ta bo`lishi kerak) guruhlarida amalga oshiriladi. Bunday kichik guruhlarda barcha a`zolar bir-birlari bilan bevosita muomalada bo`ladilar va bir-birlariga bevosita biror ta`sir ko`rsatadilar.

1.2. Jamoani shakllanish bosqichlari.

Jamoaning vujudga kelish uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi. Jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faolining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar. Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat

natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (raqbat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan –jamoaviydoni deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsada, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bardi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashiga ko'ra, bu davrda butun jamoa –ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxslarga talab qo'ya boshlaydi. Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan

foydalanadi. Jamoaning har bir a'zosida, ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish ko'nikmasini hosil qila olishi jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishining sababi — uning a'zolarini ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlaridir. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichda ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda jamoa faoligina emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga nisbatan axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydilar. Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi. Bugungi kunda o'qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni qo'yidagi uch bosqichga bo'ladilar: a) jamoani dastlabki jipslashtirish; b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish; v) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish. Jamoa hayotida muhim o'rin tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning etakchi ahamiyatini ta'kidlaydi. A.S.Makarenko jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarning ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng

muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi: 1) major — doimiy tetiklik, o'quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari; 2) o'z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash; 3) jamoa a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik; 4) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik; 5) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik; 6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko'nikmasi. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi. O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi: 1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. 2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim. 3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim. 4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart. O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish qolatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat. O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbol rejaları va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislari yoki maxsus suxbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish

mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi. Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning

mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi. Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: a) kundalik faoliyat an'analari; b) bayram an'analari. Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, –Alifbe bayramil, –Mustaqillik bayramil, –Navro'z bayramil, –Xotira va qadrlash kuni va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'alar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. An'alarining yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo'ymasligi zarur. Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'alarini davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.
2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.
3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.
4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.
5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3.Jamoaning shakllantirish va unda shaxsni tarbiyalash faoliyati

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risida fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi. Bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhlaridan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Shu bois jamoa hayotining bir yagona maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy g'oyaviy yo'nalganligi uning yetakchi belgisi hisoblanadi.

Har bir jamoa boshqa bir jamoa bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiy va xususiy maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi hamda bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan jamoa navbatidagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasidagi ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarligi hissi qaror topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishini uyg'otadi, jamoa bilan munosabatda bo'lishi ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro guruhiiy yaqinlik, hissiy birlik yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyati mazmuniga ular orasidagi hosil bo'lgan ishchilik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma bir tomondan jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhini tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlari tizimda ko'zga ko'ringan o'rnini egallagan holdagina chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (ijroguruhlar) umumjamoai ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o‘zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabatlar zaminidan tashkil topgan bo‘lmasin haqiqiy jamoa bo‘la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olish, jamoa a‘zolar o‘rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarini o‘rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo‘lishidir.

Shunday qilib, jamoa – kishilarning shunday muayyan guruhi bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan kuchni tashkil etadi. Ushbu guruh a‘zolari o‘zaro birlik, a‘zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo‘ysunishi, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Ayni ko‘rsatish, uni ko‘rsatish vositasi bo‘lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a‘zosining tarbiyalash yaxshi samaralar beradi.

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish, mustahkam hayotiy pozisiyani qaror taptirishdan iboratdir. (18)

O‘quvchilar jamoasi pedagogik – tarbiyachilar va bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o‘zining psixologik muhitiga, an‘analariga ega guruh hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o‘zida bir necha xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.
2. Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi.
3. Majburiy mas‘uliyatli munosabatning yo‘lga qo‘yilishi.
4. Saylangan umumiy rahbar organga egalik.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun 4 bosqich zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlari dastlab pedagog butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari jamoa a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tartibda olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Ushbu jarayonni sxema tarzda quyidagicha bayon etish mumkin. Yosh avlodni hayotga va mehnatga tarbiyalashda, ularda oliy axloqiy sifatlarni shakllantirishda jamoa ruhida tarbiyalash alohida o'rinni egallaydi. O'quvchi maktab davrida jamoa bo'lib o'qiydi, hamjihatlikda ishlaydi, demak, jamoatchilikning dastlabki tamoyillari bilan tanishadi va ularni o'rganib boradi. Quyida, asosan, jamoatchilik tushunchasiga doir ayrim masalalar ustida fikr yuritamiz.

«Jamoatchilik» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, jamoaviy, umumiylik, birlik degan ma'noni bildiradi. Jamoatchilik tushunchasi dastavval jamoa bo'lib ishlash, xalq uchun mehnat qilish, shaxsiy manfaatni umum manfaatiga bo'ysundirish, bir-biriga beg'araz, o'rtoqlarcha yordam berish degan tamoyilni anglatadi. Jamoatchilikni shaxsning asosiy xususiyati deb qarash lozim. Chunki jamoa hissi, bir tomondan, shaxsni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, shaxsning tarbiyalanishida o'zaro dialektik munosabatni vujudga keltiradi. Shaxsni shakllantirishning vositalaridan biri jamoatchilikdir. Jamoatchilik shaxsni shakllantirishning mohiyatini ochishda, jamoa va shaxsning o'zaro munosabat va aloqasini anglashda muhimdir. Shaxsning rivojlanish faoliyatida jamoatchilikning tutgan o'rni va ahamiyati katta ekanligini va uning mazmuni hamda xususiyatini ifodalash ma'quldir. Bu ilgari shaxsni qanday tushunganliklarini va hozir psixologlar, pedagog va faylaso'flar qanday tushunayotganliklarini aniqlash uchun zarurdir.

Jamoatchilik tushunchasini tor ma'noda va keng ma'noda anglash mumkin. Tor ma'noda jamoa ma'lum guruh kishilar yig'indisi, sinf jamoasi va boshqalardir. Jamoatchilikni keng ma'noda tushunish bu, dastavval, uning obyektiv asoslarini bilishdir. Shaxsning asosiy xususiyati jamoa bo'lib, u obyektiv asosda shakllanadi. Bu esa, dastavval, jamiyat taraqqiyoti va hayot sharoitiga bog'liqdir.

Jamoatchilik nazariyasining bu obyektiv qonuniyligini, albatta, hisobga olish zarur. Jamoatchilik bunday tarixiy taraqqiyotni kuzatish hozirgi jamiyatda jamoatchilikning mohiyati nimadan iborat ekanligini, shuningdek, jamoatchilik mohiyati nima bilan xarakterli ekanligini bilish taqozo etadi. Bizning qarashimizcha, jamoatchilik shaxsning asosiy xususiyatigina emas, balki butun g'oyasi hamdir. Ayrim olimlar jamoatchilikni nazariy jihatdan inkor etadilar yoki bu ikkiyuzlamachilik, yolg'ochilik, munofiqlik qiladilar.

Jamoatchilikning rivojlanish dialektikasi, bir tomondan, obyektiv asosni ko'zlasa, ikkinchi tomondan, jamoaning rivojlanishi, nazariy psixologiyasi sifatida obyektiv moddiy asoslarni aks ettiradi. Jamoatchilik masalasiga nazariy va ijtimoiy nuqtai nazardan qarash, har bir shaxsda jamoatchilikni shakllantirishning obyektiv asoslarini ifodalash zarurdir.

Shuni e'tirof etish kerakki, jamoa va shaxsni shakllantirishning obyektiv asosi va psixologiyasi bo'lishiga qaramay, jamoani shakllantirishda jiddiy xatolik va kamchiliklar mavjuddir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda mehnatkashlar uchun moddiy, ma'naviy va ideologik sharoitlarning yaratilganligiga qaramay, ayrim kishilarda jamoa manfaatlariga, umummanfaatlariga nisbatan shaxsiy manfaat va qiziqishlarni ustun qo'yish hollari kuzatiladi. Ayrim yoshlar jamoatchilik so'zini biladilar va bu haqda ko'p gapiradilar-u, amalda buning aksini qiladilar. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan juda qiyin jarayondir. Mehnatkashlarda jamoatchilikni shakllantirish ular ongiga eskilik sarqitlaridan to'la xalos etishning muhim vositasidir.

Jamoatchilikda shaxsiy va jamoa manfaati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Jamoatchilik manfaati shaxsiy qiziqishni ham ko'zlaydi, shaxsiy manfaat, o'z navbatida, umummanfaatni ham ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik o'zining mohiyati bilan o'zining igoizm va individualizm ideologiyasiga qarama-qarshidir. Egoizm va individualizm ham uning obyektiv va ideologik asoslariga egadir. Agar jamoatchi ma'lum guruh, jamiyatni va uning manfaatini o'zida ifoda etsa, individualchi bir

kishininggina manfaat va qiziqishini ifoda etadi. Bu yuqorida keltirilgan jamoatchilikning shakllantirish jarayoni, ruhiy tabiatini ma'lum darajada ochish maqsadga muvofiqligini taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, jamoatchilik kishilarda irodaviy, aqliy va hissiyot jarayonidir. Jamoa hissiyot bo'lib, kishilarning bir-biriga va atroflariga bo'lgan munosabatlarida hamda ichki kechinmalarida namoyon bo'ladi. Biz jamoa hissi haqida gapirganimizda, kishilarning ichki his-tuyg'ularini, o'z jamoasining yutuq va kamchiligi to'g'risidagi ichki kechinmalarini tushunamiz. Shaxsdagi aqliy jarayon bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, kishilardagi jamoa hissini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yoshlarda jamoatchilikni shakllantirish bilan bir vaqtda, ularning aqliga, hissiyotiga ta'sir ko'rsatiladi.

Har qanday hissiyot tushunchasining natijasidir. Tushunish bilan bilib olish natijasida yoqimli va yoqimsiz hissiyotlar paydo bo'ladi. Demak, jamoatchilik mazmunini tushunish va bilish orqali kishilarda yoqimli, go'zal va ijobiy tuyg'u-hissiyotlar yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, kishilarga jamoani to'g'ri tushunish va baholashga imkon beradi.

Jamoatchilik insonga xos bo'lib, ichki kechinma natijasida go'zallikka baho berish natijasi bo'lsa, individualizm yakka kishiga xos bo'lib, ichki kechinma asosida go'zallikka baho berish demakdir. Shunday qilib, bu ikki qarama-qarshi ideologiyani boshqa kishilardagi jamoatchilikni baholab qolmay, balki kishilar xulqiga imkoniyatlar ham yaratadi, uning xulqiga individualizmga qarshi hissini uyg'otadi. (13)

Demak, kishilarda jamoatchilikni shakllantirish dialektik jarayon bo'lib, shu shakllantirish bilan bir vaqtda individualizmga qarshi kurashiladi. Bu kurashda yoshlarning ongi, psixikasi individuallikni e'tirof etadi. Bu psixikaning dialektik taraqqiyoti hisoblanadi. Kishi o'zida jamoa hissi paydo bo'lishi bilan individualizmni inkor etadi. Individualizm inkor etish jarayoni psixik va amaliy tajribada ma'lum darajada qiyinchilikni vujudga keltiradi. Bu qiyinchilik bilan kurashish, so'zsiz irodaviy jarayonga bog'liqdir. Shuning uchun ham

jamoatchilikni shakllantirishda irodaviy jarayon birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Individualizm xususiy mulkchilik va raqobat negizi, jamoatchilik esa ijtimoiy mulkchilik negizida vujudga keladi. Ammo jamoatchilikning individualizm ustidan to'la g'alabasi uchun siyosiy tuzum o'zgarishi shart. Shunday qilib, jamoatchilik kishilarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda qilgan mehnat va kurash jarayonidagi birlashuvi, jipslashuvi, o'rtoqlarcha o'zaro yordami va birodarligi demakdir.

Lekin ayrim kishilarda eski individualistik axloq ko'rinishlari hamon mavjud bo'lib kelmoqda. Bunday kishilar umumxalq mulkiga o'z shaxsiy mulkidek munosabatda bo'lmaydilar, xalq boyligini oshirish uchun qayg'urmaydilar. Kuchi bilan yaratilgan texnika, qurilish materiallari qarovsiz tashlab yuborilsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ochiqda qolib nobud bo'lsa va boshqa shu kabi zararlar keltirilsa, tashvishlanmaydilar. Bunday kishilarda egoizm va individualizm ko'rinishlari bizning turmushimizga mutlaqo begona bir narsadir.

Kishilarda bir necha asrlar davomida shakllangan munosabatlar va odatlarni albatta, birdan yo'q qilish uchun kishilarni tizimli ravishda jamoa ruhida tarbiyalab borish, ulardagi individualistik ko'rinishlarga qarshi kurashish, ularda o'rtoqlarcha o'zaro yordam munosabatlarini shakllantirish zarurdir. Individualistik sarqitlarni tugatishda va jamoa ruhida tarbiyalashda asosiy masala barcha kishilarda onglilikni yangi jamiyatimiz qurilishi talablari darajasiga ko'tarishdan iboratdir. Yuqoridagilarga asoslanib yoshlarni jamoa ruhida tarbiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. eng ilg'or korxona jamoalarining ish tajribasidan, ahillik, hamjihatlik, jamoa va o'rtoqlarcha o'zaro yordamlashishda ibratli oilalar, ota-onalar hayotidan misollar keltirish;

2. kishilarning hayotida jamoa bo'lib, bir-birlari bilan do'stona birodarlarcha munosabatda bo'lib yashashlari, mehnat va ijod qilishlari, hayot va turmushlarining doimo go'zal va xushchaqchaq o'tishiga katta yo'l ochib berishini har tomonlama misollar asosida tushuntirish. Aksincha, kishilar o'z hayotida

jamoaga va uning qo'ygan talablariga to'g'ri baho bermay hayot kechirsalar, turmushi ko'ngilsiz, shirasiz va ma'naviy boyliksiz o'tishini uqtirish.

Jamoatchilikning bu xususiyatlari va tamoyillari falsafiy va pedagogik jihatdan keng va teran sharhlab beradi. Ayniqsa, bu tizimda pedagog olim to'g'ri ko'rsatganidek, jamiyat va shaxs munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Uning uqtirishicha, odam va shaxs boshqa-boshqa tushunchalardir. Odam – tirik organizm, gavda, jismdir. Ya'ni, u tabiat farzandi sifatida barcha jonli mavjudotlar kabi tabiat qonunlari bo'yicha o'sadi, yashaydi, ulg'ayadi. Bu jihatdan odamning to'rt muchasi sog' bo'lsa, Imom Zaynuddin G'azzoliy «Kimiyoi saodat» asarida aytganidek u hayvonot bilan teng mavjudotdir.

Odamning shaxsligi esa, uning o'zga odamlarga, jamiyatga, vataniga, butun insoniyatga munosabati bilan bog'liqdir. Demak, odam biologik tushuncha, shaxs ijtimoiy tushuncha. Insonlarning tabiiy ehtiyojlari qoralab, faqat ijtimoiy mexanizmga aylantirilishi, tabiatni ham siyosiyashtirish, mafkuraviy shaqatsiz tayziq insonni qadrsizlantirishi ham sho'rolar jamiyati misolida ko'rib turibmiz.

Jamoaning umumiy manfaati bilan bolaning shaxsiy manfaati birlashib, uyg'unlashib ketadi va shu holda bola shaxsiy manfaatiga nisbatan jamoaning maqsadi va manfaati muhimroq ekanligiga, bir kishi hammasi (o'z jamoasidagi hamma odamlarni) o'ylashi, hamma (butun jamoa) esa, shu jamoadagi har bir odamni o'ylashi, g'amxo'rlik qilishi zarurligini tushunish bolaning ongini o'stiradi. Yanada muhimrog'i, jamoa a'zolarining o'zaro hurmati do'stlikka aylanadi. Endi bola yoki o'smir do'stlarisiz hayot juda zerikarli, mazmunsiz o'tishini anglaydi. Chin do'stlar davrasining tug'ilishi va shakllanishi buyuk fransuz adibi Aleksand Dyumaning «Uch mushketyor» asarida juda qiziqarli tarixiy voqyealar va ayrim shaxslar do'stlarining boshlaridan o'tgan ajoyib-g'aroyib voqyealar asosida, goh quvnoq, goh ma'yus, goh mayin, goh shiddatli bo'yoqlar va ohanglarda tasvirlab berilgan.

«Jamoatchilik (birdamlik) axloqning asosiy tamoyili sifatida, - deb yozadi Ashurmat Axmedov, - individ (yakka odam)larning bir-biriga bo'lgan munosabatini, shaxsga va jamoaga bo'lgan munosabatini va, o'z navbatida,

jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Jamoatchilik o'zining axloqiy qiymatiga ham ega, ya'ni shaxs, individ jamoa oldidagi o'z burchini anglashi, jamoaning manfaati uchun ongli ravishda xizmat qilish, o'zaro yordam va hamkorlikka asoslanishi, o'ziga talabchan bo'lishi va jamoaga ishonishi kerak». Alisher Navoiy, Jomiy, Yan Amos Komenskiy, N.G.Chernishevskiy, A.S.Makarenkoning pedagogik merosini yaxshi bilgan olim Ashurmat Axmedov bu yerda jamoatchilikning ilmiy ta'rifini bergan. Bu ta'rifda aytilgan har bir tamoyil haqida keng va teran fikrlarni aytish mumkin.

III. Sinf rahbarining shaxs va jamoani o'rganish metodikasi

2.1 Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.

Jamoa nazariyasi koidalariga muvofik, uni yaratish metodikasi ishlab chikilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar kuyish, faollarni tarbiyalash, ukuv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, soglom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kupyatirish.

Ta'riflangan bu koidalar har kandy jamoa (ta'lim muassasasi, sinf jamoasi, ta'lim muassasasidan tashkari o'quvchilar birlashmasi va xokazolar)ni shakllantirish va rivojlantarish uchun kullanna xisoblanadi. Mazkur bobda gap sinf jamoasini barpo etish va rivojlantirish, sinf rahbarining shu yunalishdagi ishi xakida boradi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti xisoblanadi. Shuning uchun har bir pedagog tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasi (boskichi, davri)ni aniklashdan boshlaydi. Pedagogning esa yangi sinf bilan kup marta ish boshlashiga tug'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chikish mavsumidan keyin, baxzan esa ta'lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan. Sinf rahbari uzining metodlari jamoaning rivojlanishiga tuskinlik kilmasligi uchun shunday keyingi ishlari davomida vakti vakti bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki turtta darajasi ajratib kursatiladi («Pedagogika» darsligining **tegishli** bobiga **karang**). Boshlangich **daraja** pedagogning kuch-gayrati natijasida sinfdagi o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, tarbiyalanuvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izoxlanadi. Tarbiya jarayoni o'z – o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa uz faoliyatini mustakil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar kuyadi va o'z-o'zini nazorat kiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yul uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir.

Umuman ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga borlik bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi barpo etilmagan bo'lsa, o'quvchi ta'lim muassasasini hech afsuslanmay tark etadi, **hatto** keyinchalik o'qigan yillarini eslamaydi xam. O'quvchilar jamoasini inoq jamoaga birlashtirgan moxir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishi, fukaroning xayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning xayot yulini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining tarbiyalanuvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti xisoblanadi.

Jamoa shakllanish bosqichlari. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi ko'p. Uning moxiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro mas'uliyatli munosabatlarning mavjudligi; o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va xokazo.

O'quvchilarning jamoa turmush normalari va qoidalarining, intizomning buzilishiga munosabatlarini kuzatib, jamoaning tashkiliy tuzilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichida o'quvchilar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun bunday jamoada salbiy xodisalar ochik muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hokazo. Agar jamoa rivojlashishning ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarni qo'llab-quvvatlaydigan hqqiqiy harakat qiluvchn faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar kuyishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri — o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallom tuplash, kechaga tayyorgarlik kurish kabi ta'lim muassasalari tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda kuzga tashlanadi. Sinf rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun o'quvchilarda ularnpg hozirgi va bo'lajak xayotlarida ijtimoiy axamiyatga molik maqsadlari mavjudligiii bilishi muhim, ya'ni jamoaning xayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki ayrim o'quvchilar qabul qilishini va bu

istiqbollarning xususiyati kandayligini bilib olish zarur. Agar bulajak shanbalik yoki bayram kechasi o'quvchilar uchun faoliyatga undovchi voqea bo'lsa va bu yaqin istiqbol faqat ayrim o'quvchilar va faollar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi boskichi xakida gapirish mumkin.¹

Jamoaning rivojlanish darajasini aniklashda o'quvchilarning fakat sinfdan tashkari faoliyatida namoyon buladigan munosabatlarni ta'lil etish bilangina cheklanib bulmaydi. Sinf rahbari ishining uziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy o'quvchilar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. o'quvchilarning asosiy vazifasi ukishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval o'quvchilarning ukishga kanday munosabatda ekanliklarini, uzlarini darsda kanday tutishlarini, uy vazifalarini sidkidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniklaydi. Va, nixoyat, eng muhimi — ularning ukishdagi muljallari nimalardan iborat, bu muljallar ijtimoiy moxiyatga molik yoki molik emasligi xisoblanadi.

5- sinfda shpargalkalar, aytib turishlar, kuchirib yozishlar avj olgan edi, o'quvchilar buni tan olishdan xam uyalishmas, bunday xolni uziga xos dustlik, jamoatchilik deb xisoblashardi. Anketa savollariga javob olishda «Sen shpargalkaga kanday munosabatdasan?» degan savolga fakat bir o'quvchi — Madina bunday deb yozdi: «Aytib turishni va aytib turishdan foydalanishni uzimga ep kurmayman». Anketa savollarga javob qaytarish natijalarini muxokama kilish chogida kupchilik Madinaning tutgan kat'iy yulidan gazablanishdi: «Karanglar, kaiday magrurlanib ketib-di! Kadr-kimmat bizda xam bor, lekii u algebra buyicha kontrol ishga nisbatan ancha muhimrok, ishlarda namoyon buladi».

Sinf rahbariga bu sinfda ishlash juda kiyin edi. Bu yerda kupgina kobiliyatli va yaxshi uzlashtiradigan, ayni paytda kolok ukishda juda katta kiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar xam bor edi. Darsdan tashkari paytlarda turli tadbirlar — kechalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar utkazilardi. Lekin bularning xammasi eng muhim narsaga — o'quvchilarning ta'lim jarayoniga munosabatiga va bu jarayondagi uzaro munosabatiga ta'sir kursatmasdi. Kupchilik o'quvchilar o'qish — xap bir kishining shaxsiy ishi, degan prinsnpga amal kilardi. Yukorida 'bayon etilgan vaziyat sinf jamoasi rivojlanish darajasining pastligidan dalolat beradi.

¹ Ражабова С. «Касб - ҳунар коллежи ўқитувчисининг касбий маҳоратини оширишнинг ташкилий педагогик асослари» номзодлик диссертацияси.Т., 2004.

Jamoaning tarbiyaviy ta'siri. Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

Sinfda xakikiy jamoa munosabatlari bulmasligi mumkin, bunda pedagog ishni boshidan boshlashiga tugri keladi. Kupincha bunday xolat yangi shakllangan, «yigma» sinflarda, yangi kurilgan ta'lim muassasalarida bulishi mumkin. Tugri, boshka xollarda xam shunday bulishi, avvalgi sinf rahbarining kuch-gayrati muvaffakiyat keltirmagan bulishi, tarkibi uzgarmagan jamoa yuqori kursdagi sinflarda xam shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan, sinf rahbari sinf bilan ish boshlar ekan, har doim jamoa rivojlanishining boshlangich davri bilan ish kuradi, deb muljallab bulmaydi. Boshlangich o'qish darvlarida kupincha yaxshi sinf jamoalari shakllanadi. Pedagog bunday xolda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini ta'lil etadi va uning ancha yukori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini kullaydi.

Kuyidagilarni ta'kidlash zarur. Jamoaning rivojlanish darajasini aniklashning eng ishonchli usuli — o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashkarida, ta'lim muassasalarida, ta'lim muassasalaridan tashkarida uzaro faol xamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar, masalan, anketa tarkatish, pedagogii vaziyatlarni vujudga keltirish va boshkalardan xam foydalanish mumkin. Lekin bu usullar sinfini juda exgiyotkorlik bilan, katta pedagoglik odobi bilan kullash lozim. o'quvchilarni urganishning har bir usuli ayni vaktida tarbiya usuli xam ekanligi pedagoglar uchun konun bulib kolishi kerak. Extiyotsizlik bilan utkazilgan anketa tarkatish, ayniksa uning natijalarini muxokama kilish o'quvchilarni jipslashtirish urniga ularning orasi buzilib ketishiga olib kelishi mumkin. Keltirilgan misolda anketalarni muxokama kilish pedagog tomonidan puxta tayyorlangan, ukdan «portlash» usuli sifatida foydalanildi va boshka choralar bilan musta'kamlandiki, ular tagida kuyirokda suz yuritiladi. shaxslar, ayniksa katta usmirlar uzlarini «urganishlarini» xush kurmaydilar. Shuning uchun turli xil anketalarni oshkora va samimiy javoblar olishga umid kilgandagina kullash tavsiya etiladi.

Pedagog jamoaning kuchli va zaif tomonlarini anglash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki,

o‘quvchi kamchiliklarini xammaning urtasida yorkin namoyish etish uni ma’naviy xalok etishi, kalbini jaroxatlashi mumkin. Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir shaxsda odatdagi sharoitda boshkalardan yashiringan ijobny tomonlarni xam ochib bersin.²

Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniklangan darajasiga karab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda pedagoglarning yosh xususiyatlarini xisobga olish kushimcha shart xisoblanadi. Bu xakda gapirmasa xam bulardi, chunki bu shart pedagogik prinsiplardan biridir. Shu bilan birga, ishni endi boshlagan pedagog, ayniksa sinf rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda uz tarbiyalanuvchilari yoshini xisobga olishi muhimdir. Bunda bir xil usullar — talablar, topshiriklar va xokazolar turlicha izoxlanadi. Kuyi sinflarda kupgina talablar, koidalarni tushuntirish, xatto ayrim «zerikarli» vazifalarni bajarishga urgatish kupincha uyin shaklida utkaziladi. kichik sinflarda tarbiya shakllari ancha jiddiy, amaliy tus oladi, lekin imkoni boricha ularga usmirlarda ishtiyok uygotishga kodir bulgan romantik tus beriladn. Yukori sinflarda chukur tushuntirish ishlari olib borish, xatto ma’naviy talablarni falsafiy asoslab berish talab etiladi.

Jamoani shakllantnrishning dastlabki boskichida sinf rahbaridan ayiiksa kup shaxsiy kuch-gayrat sarf etish talab etiladi. Bunda, yukorida ta’kidlab o‘tilganidek, vaziyat shunday bo‘lishi xam mumkin, ya’ni sinf yangi emas, o‘quvchilar bir necha yildan buyon birga ukishlari, jamoa esa tarkib topmagan yoki «sochilib ketgan» bulishi mumkin. Pedagog har kanday xolda xam uz utmishdoshlarining xatolarini takrorlamaslik uchun vujudga kelgan vaziyatni ta’lil etadi va buning pedagogik sabablarini aniklaydi.

Kuyilgan vazifalarni xal etish istikbollarni olga surishdan boshlanadi. Jamoa kanday boskichda turmasin, uning oldida bir vaktning o‘zida yaqin, urta va uzoq istikbollar bulishi kerak. Tajribaning kursatishicha, o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari jamoa tusini olmagan boshlangnch boskichlarda sinf rahbari o‘quvchilarning shaxsiy manfaatlariga daxl kiladigan yakin istikbollarni urtaga kuyish va ruyobga chikarish tugrisida uylashiga tugri keladi. Yakin istikbol sifatida odatda kup tayerkgarlikni talab kilmaydigan, lekin shu bilan birga kiska muddatli

² А.Б.Исимова “Дарсдан ташкари таълим – тарбия жараёнида ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг педагогик шарт шaroitлари” номзодлик диссертацияси. Т., 2004.

amaliy muomala: ekskursiya, madaniy yurish, shahar tashkarisiga sayrdan xursandchilik yetkazadigan kizikarli ishlar tanlanadi. Bu kichik tadbirlarni tayyorlash o'quvchilarning faol pedagogik yordam ostida muayyai kuch-rayrat sarflashlarini va tashkilotchilik fazilatlarini namoyon etishlarini talab kiladi. Bunday jamoa tadbirlarini utkazish chogida faol o'quvchilar aniklanadi.

Shuni yodda tutish muhimki, istikbollar (yakin, urta, uzok istikbollar) jamoa xaet faoliyatining barcha: ukuv, ijtnmoiy-siyosiy, mexnat va ommaviy-madaniy soxalarini kamrab olgan bulishi kerak. Bunday yondashuv fakat «kungilochar» istikbollarni olga surish yulidan borish xavfidan xalos bulishga yordam beradi.

2.2 Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash ishini rejalashtirish.

Sinf rahbari ishini rejalashtirishda maktab umumiy ish rejasidan kelib chiqib aniq sinf rejasini tuzishda parallel sinflarda ko‘riladigan chora-tadbirlarni hisobga olish juda muhimdir.

Maktabning tarbiyaviy ish rejasining o‘quv yilining boshida pedagogik jamoa majlisida tasdiqlanib olinadi. Har bir sinf rahbari o‘z sinfi tarbiyaviy ish rejasini maktab tarbiyaviy ish rejasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni o‘z sinfida taaluqli bo‘lgan qismlarini kiritib reja tuzadi.

O‘quvchilarni tarbiyaviy ishini maktabning ta’miniy tarbiyaviy ishlar mazmuniga muvofiq bir sinf yoki parallel sinfning rahbarlari majlisida o‘quvchini yoshiga, ruhiy, fiziologik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar bajarilishi rejaga kiritilib, tasdiqlanib olinadi.

1. Sinf tavsiyanomasi. sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasining asosi hisoblanadi. Amalda sinf rahbarining kiritiladigan tarbiyaviy ishlari xilma-xildir. Mamlakatimizning turli tumanlarida, shahar va qishloqlarda joylashgan o‘quv yurtlarining o‘ziga xos tarbiyaviy an‘analarini hisobga olmasak, tarbiyaviy ish rejalariga kiritiladigan masalalar bir-biriga juda o‘xshab ketadi.

Sinfning mufassal pedagogik tavsiyanomasida aniq ko‘rsatilgan tadbiriyl choralar qaysi tartibda berilishida qaramasdan tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari doimiylicha qoladi. Masalan, sinf rahbarining ish rejasiga quyidagi boblarni tavsiya etish mumkin: g‘oyaviy-siyosiy dunyoqarashni shakllantirish; o‘rta maxsus ta’limni amalga oshirish; axloqiy tarbiya, jamoani tashkil etish; o‘quvchilarning tahliliga yordam ko‘rsatish; ijtimoiy foydali mehnat va kasb tanlash; ekologik va tejamkorlik ruhida tarbiyalash; ijtimoiy kamolot, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar; ota-onalar bilan ishlash va hokazolar kiradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tavsiyalar qator yillar davomida ish jarayonida amalda sinalgan bo‘lib, sinf rahbarining ish doirasida muhim o‘rinni egallaydi.

Rejaga kiritilgan chora-tadbirlarning aniqligi, har bir bajaradigan tarbiyaviy ishning aniq va tushunarli tashkil etilishi, rejadagi har bir bajaradigan ishlarning aniq va ravshan ko‘rsatilishi, chora-tadbirlarni tayyorlash. Ularni o‘tkazish natijalarini yakunlash va shunga o‘xshashlar tarbiyaviy ishlar rejasining asosiy mohiyatini

tashkil etadi.

Sinf rahbarining ish rejasi odatda bir o'quv yili uchun yarim yillik yoki choralik muddatlariga mo'ljallanib, maktab rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Tarbiyaviy ish rejalarini esa qisqa muddatlarga tuzish maqsadga muvofiqdir.

Sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzishda sinf faollari, o'quvchilar, otionalarni jalb qiladi. Sinf tarbiyaviy ish rejasida ko'rsatilgan chora-tadbirlar takror bo'lmashligi uchun maktab, jamoatchiligining ish rejalarini bilan solishtirilishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda o'quvchilarning yoshi, kundalik rejimi, yil fasllarining kunlari, ob-havo nazarda tutiladi va belgilanganidan ortiq darsdan tashqari ishlar, ortiqcha jamoat ishlarini rejaga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi maktabning muhim hujjati hisoblanadi. Sinf tarbiyaviy ish rejasini tuzish va uni amalga oshirishda sinf rahbari maxmuriyat va maktab organlari oldida javobgar shaxsdir.

Sinf rahbarining nizomida uqtirib ko'rsatilganidek, sinf rahbari, albatta, yarim yillik, bir choralik tarbiyaviy reja asosida ish olib borishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyaviy ish rejalarini choraklik yoki yarim yillikni tartibli olib borish ma'suliyatli ish bo'lib, u sinf o'quvchilari va faollarning orasida muhokama qilinishi lozim.

2. Tarbiyaviy rejalarni tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar. Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi haqiqiy hujjat bo'lishi uchun u bir qator pedagogik psixologik talablarga javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilardan iboratdir:

A. Rejaning ma'lum maqsadli bo'lishi lozim. Tarbiyaviy ish rejasi agar o'z g'oyaviyligi jihatidan maqsadli va mukammal bo'lsa, asosli va to'g'ri deb hisoblanadi. Rejaning qismida g'oyaviy-siyosiy ishlarga va ijtimoiy foydali mehnatga o'quvchilarni jalb qilish diqqat markazida bo'lishi lozim.

B. Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejalarini shakli, metodlari va mundarijalari aksariyat bir xil mazmunga ega. Bu o'xshashliklar ko'pincha quyidagilardir: seminarlar, siyosiy axborotlar, yuqori kurslarga sirtdan sayohat va boshqalar tarbiyaviy ish rejalarida keng aks ettiriladi.

V. O'quvchilarni ketma-ket tizimli tarbiyalashini ta'minlash. Sinf tarbiyaviy ish rejasiga kiritilgan chora-tadbirlar tarbiya jarayonining asosiy qismi hisoblanadi.

Har bir ijro etilgan chora-tadbirlar oldindan rejalashtirilgan chora-tadbirlar bilan uzviy boglangan bo'lishi lozim. O'quv choraklarida tuzilgan rejalar, qishki va yozgi ta'tillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar aks yettiriladi. Ikkinchi yarim yilda o'quvchilarning yozgi dam olish vaqtlarida bajaradigan tarbiyaviy ishlarini oldindan qayd etish lozim.

G. Rejaning real bo'lishi. Rejani tartibga solishda unga ijro etilishi qiyin bo'ladigan masalalar kiritilmasligi lozim. Reja aniq va ijro qilib bo'ladigan bo'lsin. Masalan, sinf rahbaridan biri, birinchi yarim yillik uchun tarbiyaviy ish rejasida quyidagi chora-tadbirlarni o'tkazish: o'quvchilar orasida do'stlik va o'rtoqlik tarbiasini amalga oshirish uchun ijtimoiy foydali mehnatni birgalikda o'tkazish, jamoa bo'lib sayohatlar uyushtirish; sinf devoriy gazetasini birgalikda siqarib o'zaro uyushtirish, san'at havaskorlarning kechalarini o'tkazish, do'stlik va o'rtoqlik mavzusidagi davra suhbatlari o'tkazish kabilarni amalga oshirish o'quvchilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, o'z navbatida ular o'rtasida do'stlik va o'rtoqlikni mustahkamlaydi.

D. Sinf tarbiyaviy ish rejasining maktab tarbiyaviy ish rejasi bilan muvofiqligi. Sinf tarbiyaviy ish rejasini tuzishdan oldin sinf rahbari sinfning tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishib chiqish lozim.

Ye. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinf tarbiyaviy ish rejalariturli tartibda tuzilgandir, chunki har bir sinf turli xil sharoitlarda ishlaydilar. Maktab ish tajribalarini o'rganib, ularni umumlashtirish asosida sinf rahbarini tarbiyaviy ish rejalarining ta'miniy chizmasini tavsiya qilishni lozim topdik. Tavsiya etayotgan sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi respublikamizning oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan buyruqlar va tavsiyalar asosida tuzilgandir.

2.3 Sinf jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish.

Sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning bevosita ta'lim tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'uldirlar. Sinfdagi barcha o'quvchilarni qobiliyatiga qarab tugaraklarga jalb etish kerak. Sinfdagi o'quvchilarning soni nechta bo'lishidan qat'iy nazar ularga ma'naviyat daftarini tuttirish kerak. Haftada bir marta o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarini to'g'ri tashkil etib, unga haqqoniy yondoshish shartdir. Tarbiyachi qanday sharoitda ishlamasin, u qanday sinfda ishlashidan qat'iy nazar, o'quvchi shaxsini kamol toptirishi kerak. Sinf rahbarligi odatda sinfni va alohida har qaysi o'quvchini o'rganishda boshlanadi. Ma'naviyati boy bo'lgan sinf rahbari o'quvchilar bilan alohida – alohida ishlashni amalga oshirishi, o'quvchilarga o'z ta'siri, metodlarini mohirlik bilan qo'llash kerak.

Agar sinf rahbari o'quvchilar faolligini yanada oshirishga harakat qilsa ota – onalar bilan aloqani mustahkamlashi lozim bo'ladi. Qaysiki sinf rahbari ota – ona bilan yaqindan aloqada bo'lsa, uning sinfidagi o'quvchilarining faolligi oshadi.

O'zbekistonimizning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini o'quvchilar, ota – onalar o'rtasida o'ranib ishlab chiqishi kerak. O'quv maskanida ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim metodlarini yagilash borasida ko'p ishlar qilindi va qilinmoqda. Tarbiyachi o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va ehtiyojini uyg'otishga harakat qiladi. Agar sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilar o'rtasida hurmat qozona olsa, o'quvchini fikrlashga o'rgatsin.

O'quv maskanida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasini to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'quvchilar bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi., o'quvchilarning o'qishga nazorat qiladi.

Darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfidagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlari sifatini oshirish chora – tadbirlarini belgilaydi. Sinf xonasining jixozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'quvchilarga sinf burchagini qanday jixozlash kerakligini aytib berish kerak. Sinf rahbari ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilar ijodiy qobiliyatlarini o'strishda,

ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan bo'sh vaqtlarida o'quvchilarning jamoat topshiriqlarni, tugaraklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Tarbiyalanuvchilarni sevish va hurmat qilish tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Agar pedagog tarbiyalanuvchilarni sevmasa u tarbiyalanuvchilarning haqiqiy tarbiyachisi, murabbiyi bo'la olmaydi.

Hozirgi kunda tarbiyaviy ishlar usulubiyoti fanining eng muhim vazifasi bu – kelajagimiz poydevorini kuruvchi va yuksaltiruvchi, bozor iktisodiyoti sharoitida mustakil ishlash – ma'naviy kadriyatlarimizni va umumbashariy kadriyatlarni uzida mujassamlashtirgan muta'assis kadrlarni tayyorlashdir. Buning uchun esa zamonaviy va jaxonning ilgor ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlangan ukuv – uslubiy adabiyotlar majmualarini yaratish, ta'lim tizimini tubdan uzgartirish uning mazmuniga milliy ruh singdirish, samarali an'anaviy uslublarni saklab kolgan holda ilgor uslublarni yaratish va ularni amaliyotda kullash lozim.

Shu maqsadda so'ngi yillarda pedagogik olim va amaliyotchilar tomonidan ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim – tarbiya amaliyotida qo'llash yo'lga qo'yilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Dars jarayonida yuqori samardorlikka erishish uchun quydagi metod va uslullardan foydalanish mumkin: bahslar, tadqiqot, muzyorar, ishbilarmonlik o'yinlari, loyhalash, kitob bilan ishlash, suhbatlar, pinbord, boshqalarni o'qitish, davra suhbatlaridir. Ushbu metodlarni dars jarayoniga qo'llash uchun esa ta'limning kichik sinflar bilash ishlash shaklidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida «Ta'lim beruvchi – t'lim oluvchi» diiologidan voz kechishni va “ta'lim beruvchi – sinf – ta'lim oluvchi” ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni taqozo etadi. Shu tufayli pedagog bilan o'quvchi o'rtasida mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.³

Quyida “Men qanday jamoa tuzishni hohlayman” nomli mavzudagi roli o'yinni ko'rib chiqamiz.

³ B.Choriev “Ta'lim samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari” T., 2005. (B.M.I.)

Mavzu: «Men qanday jamoa tuzishni hohlayman» rolli o‘yini .

I. Mashg‘ulot maqsadi: O‘quvchilarni qanday jamoa tuzishga o‘rgatish, jamoani tashkil etishda nimalarga ahamiyat qilish, Jamoaning tarbiyaviy ta’siri haqida tushuncha va tassavvurlarini shakllantirish.

II. Mashg‘ulot natijalari:

- o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish;
- roli o‘yin orqali o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishi;
- jamoa bo‘lib mulohaza yuritish;
- o‘quvchilarni qandaydir real vaziyatlarni ijro etish orqali hayotga tayyorlash:

III. Talab etiladigan vaqt 1 soat 15 minut.

IV. Zarur bo‘ladigan materiallar:

- texnik vositalar: Kodoskop
- Tarqatma materiallar: tablichka 4 dona, qog‘oz 20 dona
- ko‘rgazmali materiallar: slaydlar 2 dona.

V. Mashg‘ulot tafsiloti:

Mashg‘ulot bosqichlari	Ta’lim beruvchi faoliyati	Ta’lim oluvchi faoliyati
I.bosqich. Tayyorlov	O‘quv mashg‘ulotining maqsad va natijalari aniqlanadi, ta’lim oluvchining baholash mezonlari aniqlanadi. Texnologik haritasini tuzadi, zaruriy o‘quv materiallar tayyorlanadi.	
II. bosqich. O‘yinga kirish	O‘quvchilarga “Men qanday jamoa tuzushni hohlayman” rolli o‘yin qatnashchilari bo‘lishlarini e’lon qilinadi. Ushbu t’lim usulining maxnosini tushuntiriladi. Maqsad va natijalarini aytib beriladi. Ta’lim oluvchilarni 4 – sinfga bo‘lib chiqiladi. Har bir sinfningsardori bo‘ladi. Har bir sardorning oldiga ismi va lavozimi	O‘quvchilar mavzuning nomini va o‘quv mashg‘ulot- ning maqsad va natijalarini slaydlar orqali ko‘rib turadilar. O‘quvchilar sinflarga sinf sardorlari tomonidan bo‘linadi.

	yozilgan tablichkalar qo'yib chiqiladi.	
III. bosqich Asosiy	Endi har bir sinf o'zi tuzgan jamoa nima bilan shug'illanishini, sinf sardori ushbu sinfni tuzishda nimalarga ahamiyat qilganligini, sinfdagi ishni nimadan boshlab nimada yakunlashi kerakligi tushuntiriladi. Buning uchun vaqt ajratiladi. Ushbu vaqt ichida sinfning har bir axzosiga vazifa berilish kerak bo'ladi. Ya'ni har bir o'quvchi qaysi vazifada bo'lishiga qarab jamoaning o'sha qismini himoya qilish kerak bo'ladi.	Ta'lim oluvchi o'qituvchisi beragan vazifalarni bajarish uchun sinflarga bo'linadi. Sinf sardoriga bo'ysingan holda sinfdagi o'z vazifasini bajarishga kirishadi. O'zining takliflarini kiritadi. So'ngra butun bir jamoa bo'lib o'zining gruhi shaxnini himoya qiladi.
IV. bosqich Taklif o'zi – o'zini baholash	Bilim oluvchilarga Jamoani tashkil qilish faoliyatini tahlil qilish va o'z- o'zini baholashni amalga oshirishni taklif qilish.	O'z – o'zini baholashni amalga oshiradi.
V. Muhokam Xulosalash	Ta'lim oluvchilarga savol berish. 1 – savol. Jamoa tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak? 2 – savol. Jamoani shakllantirish uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? 3 – savol. Sizlarda ushbu dars qanday ta'surot qoldirdi?	Ta'lim oluvchilar berilgan savollarga javob beradilar. Ta'lim beruvchining yakunini eshitadi va o'zlari uchun xulosalar chiqaradilar.

Xulosa

Jamoa – bu odamlarning biror bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo‘lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasidir.

Tarbiyalovchi jamoa pedagoglar uchun tarbiya obxekti bo‘lib, pedagogik ishlarning butun mohiyati jamoalarning tashkiliy jixatdan shakllantirish, tarbiyalanuvchilarni tegishli intizom doirasida saqlashdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning mazmunli hayotini tashkil etishdan, chinakam boy ijtimoiy va jamoa munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Jamoa axzolari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro nazorat, o‘zaro ma’suliyatdan iborat muayyan munosabatlar tarkib topadi.

Sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim tarbiya jarayoni , ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’uldirlar.

«Ta’lim to‘g‘risida qonun» talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi , ijodiy izlanuvchan , yuqori malakali , turli soha egalarini tayyorlash kasb – hunar ta’limi oldiga qo‘yiladigan talablarga mutonosib insonlar qilib shakllantirish ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biridir. Ayniqsa mehnat va kasb ta’limi sohasida bilim olgan bo‘lajak mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilari mehnat faoliyatini, mahoratini oshirish oily ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu muammoni hal qilishning birdan bir yo‘li mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilari mahoratini, faoliyatini oshirish eng avvalo pedagogik shart- sharoitlar hamda oily ta’lim muassasidagi barcha imkoniyatlardan kelib chiqib, o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olinganligini ham nazarda tutadi.

Hamamizga ma’lumki mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy mahorati eng avvalo talabalarni o‘qitish, bilim berish, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ta’lim beruvchilar saviyasi bilan belgilanadi.

Jamoa nazariyasi koidalariga muvofik, uni yaratish metodikasi ishlab chikilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar kuyish, faollarni tarbiyalash, ukuv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, soglom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kupyatirish.

Ta'riflangan bu koidalar har kandy jamoa (ta'lim muassasasi, sinf jamoasi, ta'lim muassasasidan tashkari o'quvchilar birlashmasi va xokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun kullanna xisoblanadi. Mazkur bobda gap sinf jamoasini barpo etish va rivojlantirish, sinf rahbarining shu yunalishdagi ishi xakida boradi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti xisoblanadi. Shuning uchun har bir pedagog tarbiyaviy ishini sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasi (boskichi, davri)ni aniklashdan boshlaydi. Pedagogning esa yangi sinf bilan kup marta ish boshlashiga tug'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chikish mavsumidan keyin, baxzan esa ta'lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan. Sinf rahbari uzining metodlari jamoaning rivojlanishiga tuskinlik kilmasligi uchun shunday keyingi ishlari davomida vakti vakti bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki turtta darajasi ajratib kursatiladi («Pedagogika» darsligining **tegishli** bobiga **karang**). Boshlangich **daraja** pedagogning kuch-gayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, tarbiyalanuvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izoxlanadi. Tarbiya jarayoni o'z – o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa uz faoliyatini mustakil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar kuyadi va o'z-o'zini nazorat kiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yul uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir.

Umuman ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga borlik bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi barpo etilmagan bo'lsa, o'quvchi ta'lim muassasasini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik o'qigan yillarini eslamaydi xam. O'quvchilar jamoasini inoq jamoaga birlashtirgan moxir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishi, fukaroning xayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning xayot yulini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining tarbiyalanuvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2000.-245 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat. 2008.
3. Mirziyoev Sh.M. Yoshlar tarbiyasida besh tashabbus.-T.: O‘zbekiston, 2018.
4. S.Ya. Bato’shev. Professionalnaya pedagogika. –Professionalnaya obrazovaniye. Moskva. 1997. 511 s.
5. Olimov Q.T.,Uzoqova L.P. va boshqalar. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.-Toshkent: Fan, 2004. – 119 b.
6. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev, «Pedagogika» «O‘qituvchi» - 2001 .
7. Ilg‘or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot –Ma’naviyat asoslari darsi asosida ishlangan uslubiy qo‘llanma. –Abu Ali ibn Sinol. Toshkent. 2001.
8. Bo‘ri Ziyomuhammadov, Shoir Abdullayeva. Pedagogika. –O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000.- 127 b.
9. A.Nishonov, B. Haydarov va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2003. - 156 b.
10. N.X.Avliyoqulov. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. "Muallif" 2001.
11. Pedagogika nazariyasi .Maro_zalar matini.To_zuvchilar:prof. Xasanboev J, P.f.n. Usmonboeva M. T .TDPU 2001y.
12. Pedagogika kursi Tursonov Z. Nishonaliev I. T. «Uqituvchi» 1997 y.
13. Ismoilva Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar . T Fan. 2001.
14. Didaktika o‘quv qo‘llanmasi. Rasulova . YO .T 2001y
15. –Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug‘at. T. 2000y
16. Kaykovus –Qobusnomal, T. 1991 y.
17. YUsof Xos Xojib. "Qutadg‘u bilig" 1990 y.
18. Ma‘rupov, Nurmuhammedov. –Qalb quyosh murabbiyl. T. 1987
19. YU.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktablarida o‘qitish metodlari. T.1990
20. Zunnunov A., va boshqalar - «Pedagogika tarixi» oliy o‘quv yurtlari uchun Darslik. – Toshkent, «SHarq» matbaa konserni, 2000 yil.

Elektron ta’lim manzili.

21. 1. www.tdpu.uz,
22. 2. www.pedagog.uz
23. 3. www.edu.uz
24. 5. www.gov.uz
25. 6. www.ziyonet.uz